


ISSN 2181-0000
Doi Journal 10.26739/2181-0000

JOURNAL OF MAMUN SCIENCE



Volume 4, Issue 7 **2026**



ISSN 2181-0000
Doi Journal 10.26739/2181-0000



«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

4 JILD, 7 SON

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»

TOM 4, HOMEP 7

JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

VOLUME 4, ISSUE 7



TOSHKENT-2026

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

ЖУРНАЛ «MA'MUN SCIENCE» | JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

№7 (2026) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-0000-2026-7>

Бош муҳаррир: | Главный редактор:
Chief Editor:

Matyakubov Umidjon Raximovich
(i.f.d., prof.)

Бош муҳаррир ўринбосари: | Заместитель
главного редактора: | Deputy Chief Editor:

Xudoynazarov Egambergan Madrahimovich
(PhD., dots.)

TAHRIRIY MASLAHAT KENGASHI | EDITORIAL BOARD | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

FILOLOGIYA FANLARI

O'rozboyev Abdulla Durdibayevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Axmedov Oybek Saporboyevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Galiyeva Margarita Rafaelovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Nasrullayeva Nafisa Zafarovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Samarqand davlat chet tillari instituti

Cho'ponov Otanazar Otojovich

Filologiya fanlari doktori (DSc)

Urganch davlat universiteti

Yakubova Matluba Tajibayevna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Matnazarov Javlanbek Kabulovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

TARIX FANLARI

Anatoliy Sagdullayevich Sagdullayev

Tarix fanlari doktori, professor; akademik

O'zbekiston Respublikasi Fanlar

akademiyasining haqiqiy a'zosi

Ashirov Adhamjon Azimbayevich

Tarix fanlari doktori, professor,

O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasi Tarix instituti.

Shaydurov Vladimir Nikolayevich

Tarix fanlari doktori, dotsent

Leningrad davlat universiteti Rossiya

Abdullayev Utkir Ismoilovich

Tarix fanlari doktori (DSc),

dotsent Urganch davlat universiteti

Matkarimova Sadoqat Maqsudovna

Tarix fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Timur Pulatovich

Tarix fanlari nomzodi, dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdalov Umidbek Matniyazovich

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

Yunusxo'jayev Habibulla Zafar o'g'li

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

PSIXOLOGIYA FANLARI

Shoumarov G'ayrat Baxromovich

Psixologiya fanlari doktori, professor; akademik

O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi

Kryukova Tatyana Leonidovna

Psixologiya fanlari doktori, professor

Kostroma davlat universiteti Belorusiya

Karpinskiy Konstantin Viktorovich

Psixologiya fanlari doktori, professor

Grodno davlat universiteti Belorusiya

Urazbayeva Dilbar Abdullayevna

Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Jumaniyazova Nasiba Ramatillayevna

Psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun

Universiteti NTM

IQTISODIYOT FANLARI

Ruzmetov Baxtiyar

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ma'mun Universiteti NTM

Sherov Alisher Bakberganovich

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Voronsova Yuliya Vladimirovna

Iqtisodiyot fanlari nomzodi

Moskva davlat boshqaruvi universiteti

Jabborov Umarbek Rustambekovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Cho'ponov San'at Otanazarovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Niyazmetov Islambek Masharipovich

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

PEDAGOGIKA VA FALSAFA FANLARI

Sardor Sharifzoda O'razboy Tabib o'g'li

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Adilov Zafar Yunusovich

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Boltayev Abdurahim Amanovich

Falsafa fanlari doktori, dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Zoirov Erkin Xalilovich

Falsafa fanlari doktori, dotsent

Buxoro davlat texnika universiteti

Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun
Universiteti NTM

TIBBIYOT FANLARI

Yuldashev Baxrom Sobirjanevich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Ravshanbek Babajonovich

Tibbiyot fanlari doktori, professor

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Esamuratov Aybek Ibragimovich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Samandarova Barno Sultonovna

Biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Tajiyeva Zebo Baxodirovna

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

ILMIY JURNAL TEXNIK KOTIBI

Yunusxo'jayev Habibulla Zafar o'g'li

Ma'mun Universiteti NTM

Журнал включен в перечень ВАК национальных научных изданий, рекомендуемых для публикации
основных научных результатов диссертаций по медицинским наукам постановлением
№ 01-08/3068/17 от 27 сентября 2024 г.

Page Maker | Верстка | Саифаловчи: X. Mirzaxmedov

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

TARIX

- 1. Mo‘minjon Salayev Atabayevich**
BAQTRIYA HUJJATLARIDAGI TURKIY ISMLAR VA ULARNING TARIXIY TALQINI.....7
- 2. Tilovboyeva Mardona Aybekovna**
O‘RTA OSIYODA TOSH DAVRINING ILK BOSQICHI XUSUSIYATLARI.....19
- 3. Акрамова Ф.А.**
СОЦИАЛЬНАЯ ПОЛИТИКА В ОТНОШЕНИИ ЖЕНЩИН-РАБОТНИЦ ЛЁГКОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ (1946-1960 ГГ.).....22
- 4. Файзуллаев Мансур Хайруллаевич**
СПЕЦИАЛИЗАЦИЯ КАРАКУЛЕВОДСТВА В ЖИВОТНОВОДЧЕСКИХ КОМПЛЕКСАХ ЮЖНОГО УЗБЕКИСТАНА И ЕЁ СИСТЕМНЫЕ ПРОБЛЕМЫ (1960-1980 ГГ.).....30
- 5. Berdiyev Abduvali Abdug‘aniyevich**
QO‘NG‘IOTLAR SULOLASI DAVRIDA XIVA XONLIGINING TASHQI SIYOSIY ALOQALARI: SHAKLLANISHI, YO‘NALISHLARI VA TARIXIY AHAMIYATI.....37
- 6. Berdiyev Abduvali Abdug‘aniyevich**
XVIII-XIX ASRLARDA XIVA XONLIGINING ERON VA ROSSIYA BILAN DIPLOMATIK VA IJTIMOIIY-SIYOSIY MUNOSABATLARI.....47
- 7. Matniyozov Sarvarbek Sanatbek o‘g‘li**
“XORAZM OKRUGIDA YIRIK MEHNATSIZ XO‘JALIKLARNI TUGATISH TO‘G‘RISIDA”GI DEKRETNING TAHLILI.....56
- 8. Kenjayev Hasan Atanazarovich**
XV-XVI ASRLARDA SAROY KUTUBXONASINI BOSHQARISH AMALIYOTI: “BADOYE‘ UL-VAQOE” ASARIDAGI MANSHUR MISOLIDA.....64
- 9. Қадамбаев III.**
ЎРТА ЗАРАФШОНДА ТОШ ДАВРИ ТУРАР-ЖОЙЛАРИНИ ЎРГАНИЛИШ ТАРИХИ.....70
- 10. Matkarimova Nazokat Maksudovna, Matnazarova Dilorom Radjabbaevna**
XORAZMLIKLARNING AN‘ANAVIY MADANIYATIDA OILA VA OILAVIY ETIKET.....73

IQTISOD

- 1. Radjabova Mavluda Ergash Qizi**
MINTAQADA QISHLOQ XO‘JALIGI MAHSULOTLARINING EKSPORT SAMARADORLIGINI OSHIRISH XORIJ MAMLAKATLARI TAJRIBASI VA O‘ZBEKISTON SHAROITIDA QO‘LLASH IMKONIYATLARI.....77
- 2. Хусаинов Джахонгир Баходирович, Мухаммадсолиев Миродилжон Мирзохид угли**
КАСКАДНО-ЦИКЛИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ ЦЕНООБРАЗОВАНИЯ И УПРАВЛЕНИЯ ФИНАНСОВЫМ РИСКОМ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ПРОГРАММ ВЫСШЕГО УЧЕБНОГО ЗАВЕДЕНИЯ.....84

3. Matyakubov Umidjon Raximovich, Qodirova Dilfuza Sodiqjon qizi, Kodirova Feruza Sodiqjonovna	
TURIZM XIZMATLARI BOZORINI RIVOJLANTIRISHNING OBYEKTIV ZARURLIGI VA AHAMIYATI: STATISTIK TAHLIL VA KONSEPTUAL MODEL ASOSIDA.....	89

FILOLOGIYA

1. Adizova Surayyo Abduxoligovna	
INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA KOGNITIV TERMINOLOGIYANING SHAKLLANISH TAMOIYILLARI (TIBBIY TERMINLAR MISOLIDA).....	97
2. Shoymardanova Dilfuza Baxtiyorovna	
ERKIN VOHIDOV ASARLARIDA SINTAKTIK PARALLELIZM VA POETIK INDIVIDUALLIK.....	103
3. Khudoyshekur Makhmudov	
TOURISM DISCOURSE AS AN OBJECT OF LINGUISTIC RESEARCH: A COMPARATIVE LINGUISTICS PERSPECTIVE.....	107

PEDAGOGIKA

1. Sh.E.Yakubova	
“OLIIY TA'LIM MUASSASALARIDA TALABA QIZLAR IJTIMOIIY FAOLLIGINI KOMPETENTLIK ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI”..	112
2. Kalandarova Madina Baxadirovna	
IJTIMOIIY QO'LLAB-QUVVATLASHNING TUG'RUQDAN KEYINGI DAVRDAGI AYOLLAR HAYOT SIFATI BILAN BOG'LIQLIGI.....	116
3. Kasimova Xulkar Atabayevna	
NOGIRON FARZANDLI TURLI YOSHDAGI ONALARNING PSIXOLOGIK FAROVONLIGI VA EMOTSIONAL O'ZINI-O'ZI NAZORAT QILISH O'RTASIDAGI KORRELYATSION BOG'LANISHLAR.....	120
4. Абибуллаев Арсен Редванович	
ОСОБЕННОСТИ ВОССТАНОВИТЕЛЬНЫХ ПРОЦЕДУР СЕМИБОРОК В СТРУКТУРЕ ТРЕНИРОВОЧНОГО И СОРЕВНОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА.....	124
5. Шарипова Мадина	
ОРГАНИЗАЦИОННО-УПРАВЛЕНЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ АДАПТАЦИИ ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА ДУАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ К СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....	129
6. Pulatova Zulfiya Abduazizovna	
OLIIY HARBIY TA'LIM DA KURSANTLARNING KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI BAHOLASH METODIKASINI HKT-INDEKSI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	136
7. Xasanboyev Javohir	
O'ZBEKISTON TA'LIM TIZIMIDA JADID PEDAGOGIKASIDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI.....	145

FILOLOGIYA

Adizova Surayyo AbduxoliqovnaBuxoro viloyat Buxoro tuman 8- maktab oliy toifali ingliz tili o'qituvchisi
surayyoadizova8@gmail.com**INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA KOGNITIV TERMINOLOGIYANING
SHAKLLANISH TAMOYILLARI (TIBBIY TERMINLAR MISOLIDA)**<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.21980069>

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillarida tibbiy terminologiyaning shakllanish tamoyillari kognitiv tilshunoslik nuqtai nazaridan qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi tibbiy terminlarning nomlanishi asosida yotgan kognitiv jarayonlarni, jumladan kategoriyalashtirish, metafora, metonimiya va freym asosidagi bilim tuzilmalarini aniqlash hamda ularning ikki til materialida namoyon bo'lish xususiyatlarini o'rganishdan iborat. Maqolada tibbiy terminlarning yunon-lotin negizli affiksatsiya usuli, kalka, o'zlashtirish va metaforik nomlanish kabi yasash usullari tahlil qilinib, ularning o'xshash va farqli jihatlari yoritiladi. Tadqiqotda qiyosiy-tipologik, kontent va komponent tahlil metodlaridan foydalanildi. Natijalar ingliz tilida tibbiy terminlarning asosan yunon-lotin negizlari asosida shakllanishini, o'zbek tilida esa ular ko'proq o'zlashtirish, kalka va milliy til vositalari orqali moslashtirilishini ko'rsatdi. Shuningdek, har ikki tilda inson tanasi, kasallik va davolash jarayonlariga oid kognitiv metaforalar muhim o'rin egallashi aniqlandi.

Kalit so'zlar: kognitiv terminologiya, tibbiy terminologiya, termin yasalishi, metafora, kategoriyalashtirish, ingliz tili, o'zbek tili, qiyosiy tilshunoslik.

**COGNITIVE PRINCIPLES OF MEDICAL TERMINOLOGY FORMATION IN
ENGLISH AND UZBEK (A Case Study of Medical Terms)****Adizova Surayyo Abduxoliqovna**Senior English Teacher, School No. 8, Bukhara District, Bukhara Region, Uzbekistan
surayyoadizova8@gmail.com

Abstract: This article presents a comparative analysis of the principles of medical terminology formation in English and Uzbek from the perspective of cognitive linguistics. The aim of the study is to identify the cognitive processes underlying the formation of medical terms, including categorization, metaphor, metonymy, and frame-based knowledge structures, as well as to examine their manifestation in the two languages. The article analyzes the main methods of medical term formation, including Greek-Latin affixation, loan translation (calque), borrowing, and metaphorical nomination, highlighting their similarities and differences. The research is based on comparative-typological, content, and component analysis methods. The findings indicate that medical terminology in English is predominantly formed on the basis of Greek and Latin roots, whereas in Uzbek it is mainly adapted through borrowing, calquing, and the use of native linguistic

resources. Furthermore, the study demonstrates that cognitive metaphors related to the human body, diseases, and medical treatment play a significant role in both languages.

Keywords: cognitive terminology, medical terminology, term formation, metaphor, categorization, English language, Uzbek language, comparative linguistics.

ПРИНЦИПЫ ФОРМИРОВАНИЯ КОГНИТИВНОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ (НА МАТЕРИАЛЕ МЕДИЦИНСКОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ)

Адизова Сурайё Абдухоликовна

Учитель английского языка высшей категории средней школы № 8 Бухарского района Бухарской области, Республика Узбекистан surayyoadizova8@gmail.com

Аннотация: В данной статье проводится сравнительный анализ принципов формирования медицинской терминологии в английском и узбекском языках с позиций когнитивной лингвистики. Цель исследования заключается в выявлении когнитивных процессов, лежащих в основе образования медицинских терминов, включая категоризацию, метафору, метонимию и фреймовые структуры знаний, а также в изучении особенностей их проявления в двух языках. В статье анализируются основные способы образования медицинских терминов, такие как греко-латинская аффиксация, калькирование, заимствование и метафорическая номинация, раскрываются их сходства и различия. Исследование основано на сравнительно-типологическом, контентном и компонентном методах анализа. Полученные результаты показывают, что в английском языке медицинская терминология преимущественно формируется на основе греческих и латинских корней, тогда как в узбекском языке она главным образом адаптируется посредством заимствования, калькирования и использования национальных языковых средств. Кроме того, установлено, что когнитивные метафоры, связанные с человеческим организмом, заболеваниями и процессами лечения, играют важную роль в обоих языках.

Ключевые слова: когнитивная терминология, медицинская терминология, терминообразование, метафора, категоризация, английский язык, узбекский язык, сопоставительное языкознание.

KIRISH. Zamonaviy tilshunoslikda terminologiya muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda u faqat leksik birliklarni tasniflash bilan cheklanib qolmay, balki ilmiy bilimning kognitiv asoslarini ham o'rganadi. Shu nuqtai nazardan termin muayyan soha tushunchasini ifodalovchi til birligi bilan birga, bilimning konseptual tuzilmasini aks ettiruvchi kognitiv vosita sifatida ham qaraladi. Terminlarning shakllanishida kategoriyalashtirish, freym, metafora va metonimiya muhim rol o'ynaydi.

Tibbiy terminologiya kognitiv tadqiqotlar uchun alohida ahamiyat kasb etadi. U inson organizmi, kasallik va davolash jarayonlariga oid ilmiy bilimlarni o'z ichiga oladi. Ingliz tilidagi tibbiy terminlarning aksariyati yunon va lotin tillari negizida shakllangan. O'zbek tilida esa ular asosan o'zlashtirish, kalka va milliy til vositalari orqali rivojlangan. Bu holat ikki til terminologik tizimini qiyosiy o'rganish zaruratini tug'diradi. Ushbu mavzuga oid tadqiqotlarda kognitiv terminologiyani nazariy asoslari hamda tibbiy terminlarning yasalish xususiyatlari keng yoritilgan. Biroq ingliz va o'zbek tillaridagi tibbiy terminlarning kognitiv shakllanish tamoyillari qiyosiy jihatdan yetarli darajada o'rganilmagan. Ayniqsa, terminlarning konseptual asoslari va kognitiv modellardagi o'xshash hamda farqli jihatlar alohida tadqiqotni talab qiladi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi ingliz va o'zbek tillarida tibbiy terminologiyani shakllanish tamoyillarini kognitiv tilshunoslik nuqtai nazaridan qiyosiy tahlil qilishdir. Shuningdek, terminlarning hosil bo'lishida kategoriyalashtirish, metafora, metonimiya va freym asosidagi bilim tuzilmalarining o'rnini

aniqlash hamda ikki til terminologik tizimining umumiy va farqli xususiyatlarini yoritish ko'zda tutiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Ushbu tadqiqot ingliz va o'zbek tillaridagi tibbiy terminologiyaning shakllanish tamoyillarini kognitiv tilshunoslik nuqtai nazaridan qiyosiy o'rganish bo'yicha olib borilgan. Tadqiqot materiali sifatida tibbiy terminlar, terminologik lug'atlar hamda ushbu sohaga oid ilmiy manbalardan foydalanildi.

Tadqiqotda qiyosiy-tipologik, komponent, kontent va kognitiv-semantik tahlil metodlari qo'llanildi. Qiyosiy-tipologik tahlil ikki tildagi terminlarning yasash xususiyatlarini aniqlashga xizmat qildi. Komponent tahlili terminlarning morfologik va semantik tarkibini o'rganishda qo'llanildi. Kognitiv-semantik tahlil esa terminlarning shakllanishida kategoriyalashtirish, freym, metafora va metonimiyaning o'rnini aniqlash imkonini berdi. Tahlil jarayonida terminlar yasash usullariga ko'ra guruhlariga ajratildi. Jumladan, yunon-lotin negizli affiksatsiya, o'zlashtirish, kalka, metaforik hamda mahalliy-tasviriy nomlanish modellari tahlil qilindi. Shu bilan birga, ayrim yunon-lotin qo'shimchalarining semantik va kognitiv xususiyatlari ham o'rganildi.

Olingan natijalar qiyosiy tahlil asosida umumlashtirildi. Natijada ingliz va o'zbek tillaridagi tibbiy terminlarning kognitiv-lisoniy shakllanish modellari hamda ularning umumiy va farqli jihatlari aniqlandi.

TADQIQOT NATIJALARI. Qiyosiy-kognitiv tahlil natijasida ingliz va o'zbek tillaridagi tibbiy terminologiyaning asosiy kognitiv-lisoniy shakllanish modellari aniqlandi. Tahlil shuni ko'rsatdiki, har ikki tilda ham yunon-lotin negizli affiksatsiya, o'zlashtirish, kalka va metaforik nomlanish keng qo'llaniladi. Ingliz tilidagi tibbiy terminlarning aksariyati yunon va lotin tillari negizida shakllangan bo'lib, xalqaro terminologik tizimning asosini tashkil etadi. O'zbek tilida esa ular asosan o'zlashtirish, kalka va milliy til vositalari orqali moslashtirilgan. Birinchi model - bu klassik yunon-lotin negizli affiksatsiya modeli bo'lib, ingliz tilida bu model tibbiy terminologiyaning tizim hosil qiluvchi asosini tashkil etadi. Ushbu modelga ko'ra, termin negiz (odatda tana a'zosi yoki organi bildiruvchi morfema) va affiks (jarayon, holat yoki amaliyotni bildiruvchi morfema) qo'shilishi orqali yasaladi, masalan "gastritis" so'zi "gastr-" (oshqozon) va "-itis" (yallig'lanish) morfemalarining qo'shilishidan hosil bo'lgan bo'lib, bu yerda kognitiv jihatdan "organ + unda kechayotgan patologik jarayon" freymi ifodalanadi. O'zbek tilida bu terminning o'zi "gastrit" shaklida to'g'ridan-to'g'ri o'zlashtirilgan bo'lib, bu holat o'zbek tibbiy terminologiyasida xalqaro internatsionalizmlarni saqlab qolish tendentsiyasi kuchli ekanligini ko'rsatadi.

Ikkinchi model — bu kalka yo'li bilan tarjima qilish modeli bo'lib, bunda ingliz tilidagi terminning kognitiv tuzilmasi, ya'ni uning ichki ma'no komponentlari o'zbek tiliga so'zma-so'z yoki qisman tarjima qilinadi. Bunga misol qilib inglizcha "heart failure" terminini keltirish mumkin, bu termin o'zbek tilida "yurak yetishmovchiligi" shaklida kalka qilingan bo'lib, bu yerda "failure" so'zining "yetishmovchilik" deb tarjima qilinishi ikkala tilda ham yurakni "vazifasini bajarishi kerak bo'lgan mexanizm" sifatida kontseptuallashtirish kognitiv modeli saqlanib qolganligini ko'rsatadi. Uchinchi model - bu metaforik va metonimik nomlanish modeli bo'lib, bu model tibbiy terminologiyada inson tanasi va uning ichki jarayonlarini kundalik tajribadan olingan tushunchalar orqali anglash tamoyiliga asoslanadi. Masalan, inglizcha "stroke" (insult) termini "zarba" ma'nosidagi umumiy so'zdan kelib chiqqan bo'lib, bu yerda kasallikning to'satdan va kuchli ta'sir ko'rsatishi jismoniy zarba metaforasi orqali ifodalangan, o'zbek tilida esa mos keluvchi "insult" termini lotin tilidan to'g'ridan-to'g'ri o'zlashtirilgan, biroq xalq tilida "qon quyilish" yoki "shol bo'lish" kabi metaforik-tasviriy ifodalar ham keng qo'llaniladi, bu esa rasmiy va norasmiy registrlar o'rtasidagi kognitiv-terminologik farqni ko'rsatadi.

Yuqorida aniqlangan modellarning har birining ingliz va o'zbek tillarida namoyon bo'lish xususiyatlari, ularning kognitiv asosi hamda misollari quyidagi jadvalda umumlashtirilgan.

1-jadval. Ingliz va o'zbek tillarida tibbiy terminlarning kognitiv-lisoniy yasash modellari.

Yasalish modeli	Ingliz tilidagi	O'zbek tilidagi mos termin	Kognitiv asos
-----------------	-----------------	----------------------------	---------------

	termin		
Yunon-lotin negizli affiksatsiya	hepatitis, arthritis	gepatit, artrit	Organ + jarayon freymi
To'g'ridan-to'g'ri o'zlashtirish	diabetes, anemia	diabet, anemiya	Xalqaro ilmiy kategoriya
Kalka (tarjima) usuli	high blood pressure	yuqori qon bosimi	Ma'no komponentlarini saqlagan holda tarjima
Metaforik nomlanish	stroke, heart failure	insult (rasmiiy), yurak yetishmovchiligi	Kundalik tajriba orqali kontseptuallashtirish
Mahalliy-tasviriy nomlanish	jaundice, diarrhea	sariq kasal, ich ketishi	Xalq tabobati an'analari

1-jadval ma'lumotlari ingliz tili tibbiy terminologiyasida internatsional, standartlashtirilgan model ustunlik qiladi, bu esa ingliz tilining tarixiy jihatdan zamonaviy tibbiyot fanining shakllanish markazida turganligi bilan izohlanadi. O'zbek tilida esa terminologik tizim bir necha qatlamning, ya'ni xalqaro o'zlashmalar, kalka orqali tarjima qilingan terminlar va mahalliy tasviriy nomlanishlarning o'zaro ta'sirida shakllangan tizim sifatida namoyon bo'ladi. Bu holat, bir tomondan, o'zbek tilining boshqa tillar bilan tarixiy aloqadorligini aks ettirsa, ikkinchi tomondan, tibbiy terminologiyani standartlashtirish borasida hal etilishi lozim bo'lgan muammolarni ham ko'rsatadi, xususan rasmiy tibbiy hujjatlarda va xalq orasida qo'llaniladigan norasmiy nomlar o'rtaidagi nomuvofiqlik muammosini keltirib chiqaradi.

Tahlil natijalari bundan tashqari, yunon-lotin kelib chiqishli ayrim suffikslarning semantik va kognitiv xususiyatlarini ham aniqlash imkonini berdi. Ular terminning morfologik tuzilishini belgilash bilan birga, fiziologik va patologik jarayonlarni ifodalashda ham muhim vazifa bajaradi.

2-jadval. Yunon-lotin kelib chiqishli tibbiy suffikslarning semantik va kognitiv tavsifi.

Suffiks	Ma'nosi	Ingliz tilidagi termin	O'zbekcha termin	Kognitiv model
-rrhea	oqish, ajralish	pyorrhea, rhinorrhea, diarrhea	piorreya, rinoreya, diareya	jarayon → ajralish
-rrhage	kuchli qon ketish	hemorrhage, menorrhagia	gemorragiya, menorragiya	organ → qon ketish
-rrhexis	yorilish	angiorrhesis, hysterorrhexis	angiorreksis, gisterorreksis	organ → yorilish
-rrhaphy	tikish	nephrorrhaphy, gastrorrhaphy	nefrorafiya, gastrorafiya	organ → jarrohlik yo'li bilan tiklash

2-jadval natijalari -rrhea, -rrhage, -rrhexis va -rrhaphy suffikslarining termin hosil qilishdagi faol ishtirokini ko'rsatadi. Ingliz tilida ushbu modellardan keng foydalanilsa, o'zbek tilida ular, asosan, fonetik moslashtirish orqali o'zlashtirilgan. Misol tariqasida, -rrhea suffiksi bilan tugagan tibbiy terminlar "organizm ichidagi moddaning tashqariga oqishi" jarayoni sifatida, -rrhage qo'shimchasi esa "kuchli qon ketish" patologik hodisasi sifatida -rrhaphy suffiksi "jarrohlik aralashuvi organi tiklash" jarayoni sifatida tushuniladi.

Tadqiqot natijalari terminlarning kognitiv shaffoflik darajasida ham muayyan farqlar mavjudligini ko'rsatdi. Xususan, internatsional terminlar ilmiy aniqligi bilan ajralib tursa, kalka va mahalliy nomlanishlar ma'noni idrok etish nuqtai nazaridan nisbatan shaffofroq ekanligi aniqlandi.

3-jadval. Ingliz va o'zbek tibbiy terminlarining kognitiv shaffoflik darajasi bo'yicha qiyosiy tavsifi.

Termin turi	Kognitiv shaffoflik	Izoh
-------------	---------------------	------

	darajasi	
Yunon-lotin negizli internatsional terminlar (ingliz tilida)	Past (maxsus tayyorgarlik talab etadi)	Ma'noni anglash uchun klassik tillar bo'yicha bilim zarur
To'g'ridan-to'g'ri o'zlashtirilgan terminlar (o'zbek tilida)	Past	Negiz va affikslar o'zbek tili egalari uchun shaffof emas
Kalka orqali yasalgan terminlar	Yuqori	Ma'no komponentlari ona tilida saqlanganligi sababli tushunarli
Mahalliy-tasviriy terminlar	Eng yuqori	To'g'ridan-to'g'ri kundalik tajriba va tilga asoslangan

3-jadval ma'lumotlari kalka asosida yasalgan terminlar hamda mahalliy-tasviriy nomlanishlarning o'zbek tili foydalanuvchilari uchun tushunarliroq ekanligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, internatsional terminlar ilmiy muloqotda yuqori darajadagi aniqlik va standartlashtirishni ta'minlaydi.

MUHOKAMA. Olingan natijalar ingliz va o'zbek tillaridagi tibbiy terminologiya umumiy kognitiv tamoyillarga asoslanishini ko'rsatdi. Har ikki tilda ham terminlar kategoriyalashtirish, freym va metaforik nomlanish asosida shakllanadi. Biroq bu tamoyillarning namoyon bo'lishi tilning tarixiy taraqqiyoti va terminologik rivojlanishiga bog'liq. Ingliz tilidagi tibbiy terminlarning aksariyati yunon-lotin negizli xalqaro terminlardan iborat. O'zbek tilida esa terminologik tizim o'zlashmalar, kalka va milliy til vositalari uyg'unligida shakllangan. Bu holat o'zbek tibbiy terminologiyasining tarixiy rivojlanishi hamda boshqa tillar bilan til aloqalari ta'sirini ko'rsatadi.

Tahlil terminlarning kognitiv shaffofligida ham ayrim farqlar mavjudligini ko'rsatdi. Internatsional terminlar ilmiy aniqligi bilan ajralib turadi. Kalka va mahalliy nomlanishlar esa mazmunni tushunishni osonlashtiradi. Shu bilan birga, ular ayrim hollarda xalqaro terminlar bilan to'liq mos kelmaydi.

Natijalar tibbiy terminlarni tarjima qilish, o'qitish va ikki tilli terminologik lug'atlar yaratishda kognitiv yondashuv muhim ekanligini tasdiqlaydi. Terminlarning konseptual asoslarini hisobga olish ularning mazmunini aniqroq ifodalash hamda tillar o'rtasida terminologik muvofiqlikni ta'minlashga yordam beradi. Bu yondashuvlar elektron ikki tilli terminologik lug'atlar yaratishda ham muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

XULOSA. Mazkur tadqiqot ingliz va o'zbek tillarida tibbiy terminologiyaning shakllanish tamoyillarini kognitiv nuqtai nazardan qiyosiy tahlil qilish imkonini berdi. Natijalar har ikki tilda ham terminlarning shakllanishida kategoriyalashtirish, freym, metafora va metonimiya muhim o'rin tutishini ko'rsatdi. Tahlil davomida tibbiy terminlarning asosiy kognitiv-lisoniy yasallish modellari aniqlandi. Ingliz tilida yunon-lotin negizli affiksatsiya va internatsional terminlar ustunlik qiladi. O'zbek tilida esa o'zlashtirish, kalka va milliy til vositalari faol qo'llaniladi. Shuningdek, yunon-lotin suffikslarining semantik va kognitiv vazifalari hamda terminlarning kognitiv shaffoflik darajasi qiyosiy baholandi. Tadqiqot natijalari tibbiy terminlarni tarjima qilish, ikki tilli terminologik lug'atlar yaratish va tibbiyot yo'nalishida chet tillarini o'qitishda kognitiv yondashuvning ahamiyatini tasdiqlaydi. Terminlarning konseptual asoslarini hisobga olish ularning mazmunini aniqroq ifodalash va terminologik muvofiqlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Kelgusida ushbu yondashuvni farmakologiya, stomatologiya va jarrohlik terminologiyasiga tatbiq etish maqsadga muvofiq. Shuningdek, ingliz va o'zbek tillarining elektron tibbiy terminologik lug'atlarini yaratishda mazkur tadqiqot natijalaridan foydalanish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Dadaboyev H. O'zbek terminologiyasi. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2020.
2. Faber P. (Ed.). A Cognitive Linguistics View of Terminology and Specialized Language. – Berlin; Boston: De Gruyter Mouton, 2012.

3. Herrero-Zorita C., Molina C., Moreno-Sandoval A. Medical term formation in English and Japanese: A study of the suffixes gram, graph, and -graphy // *Review of Cognitive Linguistics*. – 2015. – Vol. 13, № 1. – P. 81–105.
4. Murtazayeva X. Tibbiy terminologiyaning yasash xususiyatlari // *Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari*. – 2024. – № 4 (S/4).
5. Ochilova M. R. Design Principles for an Online English–Uzbek Dictionary of Music and Dance Terms: Doctoral dissertation. – Bukhara: Bukhara State University, 2025.
6. Rosch E. Principles of Categorization // *Cognition and Categorization* / Ed. by E. Rosch, B. B. Lloyd. – Hillsdale, NJ: Lawrence Erlbaum Associates, 1978. – P. 27–48.
7. Temmerman R. Towards New Ways of Terminology Description: The Sociocognitive Approach. – Amsterdam; Philadelphia: John Benjamins Publishing Company, 2000.
8. Willis M. C. Medical Terminology: The Language of Health Care. – Philadelphia: Lippincott Williams & Wilkins, 2006.

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE» JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

Maqolani tayorlashda qo'yiladigan talablar:

1. Maqola o'zbek, ingliz va rus tillarida minimal 6 sahifadan iborat bo'lib, Microsoft Word dasturida Times New Roman shriftida 12 kegl, 1 satr oralig'ida, sahifalar barcha tomondan 2 sm qoldirilgan holda bo'lishi shart.
2. Satr boshi - 1,25 sm bo'lib, satrlarni eniga to'g'irlash, so'zlarni boshqa qatarga ko'chirish avtomatik tarzda bo'lishi lozim.
3. Birinchi qator o'ng tomondan muallifning familiyasi, ismi va otasining ismi, ikkinchi qatorda muallifning ish joyi, lavozimi, ilmiy darajasi va unvoni, e-mail va telefon raqami, uchinchi qatorda sahifaning o'rtasida bosh va qalin harflar bilan maqolaning nomi yoziladi. Ushbu ma'lumotlar o'zbek, ingliz va rus tillarda berilishi lozim.
4. Keyingi qatordan o'zbek, ingliz va rus tillarida 60 so'zdan iborat annotatsiya beriladi.
5. Keyingi qatordan 7-10 ta o'zbek, ingliz va rus tillarida kalit so'zlar beriladi.
6. Keyingi qatordan asosiy matn boshlanadi va maqola 4 qismdan iborat bo'ladi: Mavzuning dolzarbligi. Metodlar va o'rganilganlik darajasi. Tadqiqot natijalari. Xulosa.
7. Maqolalar ilmiy ahamiyatga ega bo'lib, ulardagi fakt va fikrlar asoslangan hamda mustaqil ma'no kasb etishi lozim, plagiat holati taqiqlanadi. Muallif foydalanilgan adabiyotlarni aniq ko'rsatishi, olingan iqtiboslarning aniq manbalarini keltirishi lozim.
8. Web of science hamda Scopus tizimidagi jurnallardan iqtiboslar olish maqsadga muvofiqdir.
9. Iqtiboslar matn ichida [1, 25] beriladi. Adabiyotlarning to'liq ro'yxati asosiy matndan so'ng alifbo tartibida ko'rsatilishi lozim.

Требования к оформлению научной статьи:

1. Статьи должны содержать 6 страниц, в формате Times New Roman на Microsoft Word, 12 кегль, 1 см, со всех сторон 2 см.
2. Начала абзаца - 1,25 см, формировать строки по ширине, перенос слов в другой ряд должен быть в автоматическом порядке.
3. В первой строке от правой стороны Ф.И.О. автора, во второй строке место работы, должность, ученая степень и ученое звание, e-mail и номер телефона, в третьей строке по центру страницы прописными буквами жирным шрифтом название статьи. Эта информация должна быть предоставлена на узбекском, английском и русском языках.
4. В следующей строке аннотация из 60 слов на трех языках: узбекский, английский и русский.
5. Со следующей строки ключевые слова 7-10.
6. Далее начинается основной текст. новой текст начинается со следующей строки, и статья состоит из 4 частей: актуальность темы, методы и уровень исследования, результаты исследования, заключение.
7. Статьи должны иметь научное значение, факты и идеи должны быть обоснованными и избежать плагиатства. Автор должен точно указать использованную литературу и ссылку на источники, при помощи которых он выразил свое мнение.
8. Сноски или ссылки должен быть взяты из Web of science, а также системы журналов Scopus.
9. Цитирование приводится в тексте [1, 25] Полный список литературы должен быть указан после основного текста, а алфавитном порядке.

Requirements of the articles submitted:

1. Articles should be at least 6 pages, in Times New Roman, 12 pt., 1 inter.
2. The line head should be 1,25 cm, line spacing, and the words should be automatically moved.
3. The author's full name should be on the first line from the right; the author's place of work, position, academic degree, and academic rank, email address, and phone number should be on the second line; the article title should be centered in bold, capital letters, on the third line. This information should be provided in Uzbek, English, and Russian.
4. An annotation of 60 words in the next line in three languages.
5. Key words from the next row in three languages 7-10.
6. The next line begins with the main text. The main text begins on the next line, and the article consists of four parts: the relevance of the topic, the methods and level of research, the results, and the conclusion.
7. Articles must be of scientific importance and facts and opinions in the article should be well-grounded and have an independent meaning, and they must be free of plagiarism. The author must clearly demonstrate the literature used in his or her opinion, and provide the exact sources of the extracts.
8. Quotes should be from "Web of science" and "Scopus" journals.
9. A complete list of publications should be followed in alphabetical order after the main text. Seals and references should be in the main text [1, 25].